

**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSİYALASH SHAROITIDA INQIROZGA  
QARSHI BOSHQARUVNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI**

*Davlat mulki obyektlardan samarali foydalanish markazining Toshkent shahar  
hududiy boshqarmasi kadrlar bo‘yicha bosh mutaxassisi  
Raximov Hayotjon Saydullayevich*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bozor iqtisodiyotini boshqa iqtisodiy tizimlardan ajratib turuvchi farqli xususiyati, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida inqirozga qarshi boshqaruv, raqamli iqtisodiyotda korxonalar xo‘jalik faoliyatini uzliksiz faol ishlashi, tashxislashning maqsadi, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Bozor iqtisodiyoti, inqiroz, raqamli iqtisodiyot, inqirozga qarshi boshqaruv, tashxislash, iqtisodiy kategoriya, globallashuv jarayoni, iqtisodiy talofatlar.

**Аннотация:** В данной статье размышляются об отличительной особенности рыночной экономики от других экономических систем, антикризисном управлении в условиях модернизации экономики, непрерывной активной деятельности предприятий в условиях цифровой экономики, целях диагностики и основных задачах государственного регулирования экономики.

**Ключевые слова:** Рыночная экономика, кризис, цифровая экономика, антикризисное управление, диагностика, экономическая категория, процесс глобализации, экономические потери.

**Annotation:** This article reflects on the distinguishing feature of the market economy from other economic systems, anti-crisis management in the context of economic modernization, the continuous active operation of enterprises in the digital economy, the purpose of diagnosis, and the main tasks of state regulation of the economy.

**Key words:** Market economy, crisis, digital economy, anti-crisis management, diagnosis, economic category, globalization process, economic losses.

Bozor iqtisodiyotini boshqa iqtisodiy tizimlardan ajratib turuvchi farqli xususiyati mulkchilikning turli xil shakllariga asoslanganligidir. Bozor munosabatlaridagi shu xususiyat, raqobatni shakllantiradi, natijada ishlab chiqarish uzliksiz yangi texnika-texnologiya bilan quollantiriladi, narx-navo pasayadi, mahsulot sifati, raqobatbardoshligi ortadi. Lekin bozor iqtisodiyoti kamchiliklardan holi emas. Chunki, har qanday mukammallikni boshqarib borilmasa, uning inqirozga yuz tutishi mumkin. Bu borada Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevral kuni «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi qabul qilingan Farmonida belgilangan vazifalar,

xususan iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish jarayonida korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aktsiyadorlarning rolini kuchaytirishni izchil amalga oshirish yanada muhim o‘rin tutilishi qayd etilishi korporativ boshqaruvning mohiyatiga jiddiy e’tibor qaratishni talab etadi.

Inqiroz barcha iqtisodiy tizimlar va xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy faoliyatida tanazzul holatini yuzaga keltiradi. Sanoat korxonalarida inqirozlar boshqa tarmoq yoki iqtisodiy tizimdagи qiyinchiliklar hisobiga va tarmoq ichida ham vujudga kelishi mumkin. Chunki, inqirozga olib kelishi mumkin bo‘lgan boshqa tarmoqlarga tegishli barcha sabablar, sanoat korxonalaridagi inqirozlarni chaqirish xususiyatiga ega.

Inqiroz deganda, insonning ko‘z oldida hech qanday moddiylik gavdalanmaydi va hech qanday shakli-shamoyili bo‘lmaydi. Mavhumlikka ega bo‘lgan moddiy ko‘rinishi mavjud bo‘lmagan tushuncha tovar va pul munosabatlarini nomuvofiqlashtirish va turli darajada qiyinchiliklar yetkazish quvvatiga ega.

Bizning fikrimizcha, inqiroz - bu bir hayotiylik tizimida rivojlanib borayotgan ob'ekt yoki sub'ektni taraqqiyotidan to‘xtatishi va orqaga ketishidir. Inqirozda harakatlanayotgan jism o‘zini tiklay olmasa yo‘q bo‘lib ketishi muqarrar. Inqiroz faoliyat va jarayonning har bir bosqichida to‘satdan yoki ma'lum va noma'lum sabablarga ko‘ra paydo bo‘lishi, uni harakatlanib ketayotgan yo‘lidan bir turtki bilan chiqarib yuborishi mumkin. Shu xususiyati bilan ham, u xatarlarning manbaasidir.

Korxonalarda inqirozga qarshi boshqaruvning samarali ishlab chiqilishi va natijasi bevosita uning turini, tavsifini va xususiyatini qay darajada aniqlab olinishiga bog‘liq. Sababi, inqirozning turi va xususiyatini to‘g‘ri aniqlash, korxonaning xo‘jalik faoliyatiga qo‘yilgan tashxisni oydinlashtiradi va muammoning manbaasini topishga yordam beradi. Muammo to‘g‘ri aniqlansa, uni bartaraf etish chora-tadbirlarining samaradorligi oshadi.

Raqamli iqtisodiyotda korxonalar xo‘jalik faoliyatini uzluksiz faol ishlashi aytilganidek, qabul qilingan qarorlarning asoslanganligi va sifatiga bog‘liq. Qaror qabul qilish mexanizmini ishlab chiqarish korxonalarida to‘g‘ri tashkil etilganligi uni ma'lumotlar bilan ta'minlovchi tizimning axborotlarini ishonchliligi va o‘z vaqtida yetkazib berilishi bilan tavsiflanadi. Bu tizimining ajralmas qismlaridan biri korxonalarini tashxislash jarayonidir.

Inqiroz korxonaning moliyaviy barqarorligiga qanchalik jiddiy ta'sir qilishini anglash qiyin emas. Shu sababdan, inqirozga qarshi boshqaruvning birinchi bosqichi, uni vaqtida aniqlash va unga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iboratdir. Bu jarayonni tashxislash deb ataladi. Global inqiroz davrida tashxislash o‘z dolzarbligini

yanada oshirdi. Bu uni bevosita maqsadidan ham kelib chiqadi. Tashxislashning maqsadi -o'rganilayotgan ob'ektga aniq va to'g'ri baho berish, korxonaning ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy faoliyatidagi mavjud bo'lgan muammolarni hosil bo'lish sabablarini aniqlashdir. Vazifasi esa korxonaning barcha tuzilma va bo'g'inlarida samarali qaror qabul qilish hamda inqiroz xavfi tug'ilganda uni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun axborot bilan ta'minlashdir. Shunday ekan, inqirozga qarshi boshqaruv mexanizmini samarali amal qilishi mazkur jarayonni tashkiliy ishlariga bog'liq.

Tashxis qo'yishni iqtisodiy kategoriya sifatida tushunish uchun, avvalo iqtisodchi olimlarni bu haqdagi fikrlarini o'rganish lozim. Rossiyalik olimlardan Ye.A. Babushkina bankrotlik kelish ehtimolini bashorat qilish uchun avvalo uni tashxislash kerakligi haqida aytadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda, davlat iqtisodiyotni o'zining huquqiy me'yorlari bilan tartibga solib turadigan iqtisodiy tizimning sub'ekti sifatida tavsiflanadi. Iqtisodiyotni tartibga solish hukumatning asosiy vazifalaridan hisoblanib, buni u qonuniy asosda soliqqa tortish, bojxona bojlari, dotatsiya va subsibidiyalar, foiz stavkasi, valyuta kurslari kabi vositalarni o'zgartirish hamda chegaralash yo'li bilan amalga oshiradi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifalaridan biri korxonalar faoliyatida inqirozli vaziyatlarni bartaraf etish uchun sharoitni yaratish hisobiga bozor mexanizmini amal qilishida ziddiyatlarni bartaraf etish bo'lib, bu vazifa inqirozga qarshi davlat tadbirlarini ishlab chiqish va tatbiq etish bilan hal etiladi. Global inqirozining natijalaridan xulosa chiqarilsa, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar dastlab moliyaviy salohiyatni ushlab qolishga harakat qildilar. Sababi:

Birinchidan, inqiroz shu davlatlarda boshlangan va ular jahon iqtisodiyotining gigantlari hisoblanadi.

Ikkinchidan, mazkur davlatlar guruhida ishlab chiqarish salohiyatini yanada oshirish imkonini kam, chunki, ishlab chiqarishda cho'qqini zabt etib bo'lingan.

Uchinchidan, ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy barqarorligi bir qancha muddat ushlab turish ularni jahon bozoridagi mavqeiga katta zarar yetkazmaydi.

To'rtinchidan, korxonalar moliyaviy tomonidan ta'minlanib turilmasa, ishlab chiqarish jarayoni to'xtashi va u katta iqtisodiy talofatlarga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, ular globallashuv jarayonining eng katta ishtirokchilari va o'z-o'zidan jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi ham benihoya yirik, shu sababdan, tashkiliy-moliyaviy vositalar yordamida o'z moliya tizimlarini inqirozdan himoyalashga majburdirlar.

**Foydalaniłgan adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston” 2016
2. I.A.Karimov O'zbekiston -iqtisodiy islohotlarni chiqurlashtirish yo‘lida. -T.: «O'zbekiston», 1995
3. A.V.Vahobov, T. S.Malikov. “Moliya” Toshkent - «Noshir» - 2012
4. Sh. Abdullayeva. Pul, kredit va banklar. Darslik. Toshkent-2003
5. www.edu.uz
6. www.pedagog.uz
7. www.tdpu.uz
8. www.ziyonet.uz